


## V. XIZMATLAR


Iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan xizmatlar sohasining ahamiyati katta va dolzarb hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonlarining tobora murakkablashib borayotganligi, bozorni kunlik va individual talablarga mos iste‘mol tovarlari bilan to‘ldirish, innovatsion rivojlanishning jadal o‘sishi jamiyat hayotining yangilanishiga olib keladi. Bu axborot, moliya, transport, sug‘urta va boshqa turdagi xizmatlarsiz amalga oshmaydi.

Xizmatlar sohasida 16,7 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ushbu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ni tashkil etdi. Yangi korxona va tashkilotlarni tashkil etish, shuningdek, faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar tomonidan innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatilayotgan xizmatlar ro‘yxatini kengaytirish kelgusida ish o‘rinlarini ko‘paytirish va aholi farovonligini oshirishga yordam beradi.

**Xizmatlar sohasiga taaluqli faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 2023 yil 1 yanvar holatiga



## 2023 yilning 1 yanvar holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotganlarning ulushi, % da (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



2023 yil 1 yanvar holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida eng yuqori ulushni savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxona va tashkilotlar 44,4 % tashkil etadi.

Yashash va ovqatlanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida tashish va saqlash faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 6,0% ni tashkil etmoqda.


Sog‘liqni saqlash sohasida faoliyat yuritayotgan va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,8 % ni tashkil etdi.

Axborot faoliyati bilan shug‘ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ga teng bo‘ldi.

2022 yilning yanvar-dekabrida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hajmi 10421,9 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2021 yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘shish 115,7 foizni tashkil etdi, shu jumladan qishloq joylarida 2486,4 mlrd. so‘m yoki umumiy ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining 23,9 foizini tashkil etdi.

Xizmatlar tarkibida jami xizmatlarning eng katta ulushi, transport xizmatlari (27,2 %), savdo xizmatlari (21,7 %), moliyaviy xizmatlar (21,4 %), ta‘lim sohasidagi xizmatlar (6,5 %) va boshqa xizmatlar (23,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan  
xizmatlar tarkibi, % da**



**Yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi**

	<i>faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so'm</i>		<i>o'sish sur'ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2022 y.</i>	<i>2021 y.</i>		

<b>Jami xizmatlar</b>	<b>7085,0</b>	<b>10421,9</b>	<b>8458,4</b>	<b>115,7</b>	<b>100,0</b>
-----------------------	---------------	----------------	---------------	--------------	--------------

*shu jumladan xizmat  
turlari bo'yicha:*

aloqa va axborotlashtirish xizmati	159,0	545,0	448,7	120,4	5,2
--	-------	-------	-------	-------	-----

moliyaviy xizmatlar	103,0	2 228,7	1 692,1	129,0	21,4
---------------------	-------	---------	---------	-------	------

transport xizmati	773,0	2 830,1	2 303,7	119,1	27,2
-------------------	-------	---------	---------	-------	------

*shu jumladan:*

avtotransport xizmatlari	612,0	1 279,3	1 159,4	103,1	12,3
-----------------------------	-------	---------	---------	-------	------

yashash va ovqatlanish xizmatlari	739,0	230,7	185,5	101,9	2,2
--------------------------------------	-------	-------	-------	-------	-----

savdo xizmatlari	3559,0	2 267,0	1 913,8	105,1	21,7
------------------	--------	---------	---------	-------	------

ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan xizmatlar	227,0	239,9	206,4	109,0	2,3
---	-------	-------	-------	-------	-----

*davomi*

	<i>faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni</i>	<i>mlrd. so‘m</i>		<i>o‘sish sur‘ati, %</i>	<i>yakunga nisbatan foiz hisobida</i>
		<i>2022 y.</i>	<i>2021 y.</i>		
ta’lim sohasidagi xizmatlar	223,0	677,6	568,1	113,5	6,5
sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	274,0	133,5	99,9	120,9	1,3
ijara xizmatlari	70,0	188,8	159,4	111,1	1,8
kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’minlash xizmatlari	121,0	297,8	239,9	108,3	2,9
boshqa shaxsiy xizmatlar	83,0	385,2	304,2	105,5	3,7
memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	93,0	119,9	92,5	121,7	1,1
boshqa turdagi xizmatlar	661,0	277,7	244,2	105,8	2,7

Xizmatlar tarkibida eng katta ulush transport (jami xizmatlarning 27,2 foizi) va savdo (21,7 foizi) xizmatlariga to‘g‘ri keldi.


Shuningdek, moliyaviy xizmatlar (129,0 foiz), memorchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (121,7 foiz), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (120,9 foiz) o‘sish sur‘ati yuqori bo‘ldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar tarkibi,**  
(2022 yil yanvar–dekabr, jamiga nisbatan % da)

Transport xizmatlari	27,2 %
Savdo xizmatlari	21,7 %
Moliyaviy xizmatlar	21,4 %
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	6,5 %
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar	5,2 %
Shaxsiy xizmatlar	3,7 %
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2,9 %
Boshqa xizmatlar	2,7 %
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	2,3 %
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	2,2 %
Ijara xizmatlari	1,8 %
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,3 %
Me‘morchilik sohasidagi xizmatlar	1,1 %

Bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi savdo xizmatlari 21,7 % eng yuqori ulushni tashkil etadi. Savdo oddiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talablarini shakllantirish jarayonlarida faol ishtirokchiga aylandi. Hozirgi vaqtda, savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan jami xizmatlar hajmining sezilarli qismi hisoblanadi.

**2022 yil yanvar-dekabr oylari da savdo xizmatlari tarkibi, % da**




- Avtomobil va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar
- Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm

	Transport xizmatlari	2830,1 mlrd. so'm
	Savdo xizmatlari	2267,0 mlrd. so'm
	Moliyaviy xizmatlar	2228,7 mlrd. so'm
	Boshqa xizmatlar	719,9 mlrd. so'm
	Ta'lim sohasi xizmatlari	677,6 mlrd. so'm
	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	545,0 mlrd. so'm
	Shaxsiy xizmatlar	385,2 mlrd. so'm
	Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	297,8 mlrd. so'm
	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	239,9 mlrd. so'm
	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	230,7 mlrd. so'm

Joriy yil yanvar-dekabr oylari davomida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida transport xizmatlari eng katta ulushni egallagan bo‘lib, 2830,1 mlrd. so‘mni tashkil etgan, (2021 yilda 2303,7 mlrd. so‘m) nisbatan 119,1 foizni tashkil etgan, shuningdek ko‘rsatilgan xizmatlar hajmida savdo xizmatlari 2267,0 mlrd. so‘m (2021 yilda 1913,8 mlrd. so‘m), moliyaviy xizmatlar 2228,7 mlrd. so‘m (2021 yilda 1692,1 mlrd. so‘m) va ta‘lim sohasidagi xizmatlar 677,6 mlrd. so‘m (2021 yilda 568,1 mlrd. so‘m) hissalariga to‘g‘ri keldi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan  
bozor xizmatlarining o‘rta sur‘atlari, %  
(2022 yil yanvar-dekabr oylari uchun)**



Shu bilan birga, eng yuqori o‘rta sur‘atlari moliyaviy xizmatlar (29,0 %), me‘morchilik sohasidagi xizmatlar (21,7 %) sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (20,9 %) va qayd etildi.

Respublikamizda kredit siyosati bo‘yicha olib borilayotgan islohotlarning davom ettirilishi moliyaviy xizmatlarning o‘shishiga imkoniyat yaratdi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning o‘shish sur‘ati 29,0 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlari ko‘rsatish, jumladan “raqamli” banklar va chakana xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan bank bo‘linmalarini tashkil etish uchun innovatsion bank texnologiyalarini joriy qilish, masofadan turib bank xizmatlarini ko‘rsatish, to‘lov tizimini yanada rivojlantirish moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga yordam beradi.

2022 yil yanvar- dekabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 2228,7 mlrd. so‘mga teng bo‘lib, 2021 yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati esa 129,0 % ni tashkil etdi.

## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da



**2022 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish**

	<i>Hajmi mlrd. so‘m</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga ming so‘mda</i>	<i>O‘sish sur‘ati, % da</i>
<b>Qoraqalpog‘iston Respublikasi</b>	<b>10421,9</b>	<b>115,7</b>	<b>5310,8</b>	<b>114,2</b>
Nukus sh.	4391,0	116,6	13233,9	114,7
<i>tumanlar:</i>				
Amudaryo	535,9	117,2	2592,6	115,1
Beruniy	519,6	112,6	2607,1	110,7
Bo‘zatov	55,2	116,0	2531,2	116,0
Qonliko‘l	141,9	112,9	2687,2	111,4
Qorao‘zak	170,7	111,3	3166,9	110,3
Kegeyli	191,5	112,6	2591,7	111,8
Qo‘ng‘irot	1545,0	121,7	11555,5	120,4
Mo‘ynoq	124,8	110,8	3759,2	109,2
Nukus t.	211,2	110,0	4030,4	108,1
Taxiatosh	237,0	115,8	3122,6	114,5
Taxtakopir	151,7	111,7	3812,3	113,7
To‘rtko‘l	802,9	111,8	3603,8	110,0
Xo‘jayli	442,1	111,4	3497,6	110,1
Chimboy	304,5	111,5	2659,1	110,8
Shumanay	147,0	115,8	2564,8	114,8
Ellikqal’a	449,9	113,6	2707,1	111,6

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o‘sish sur‘ati Qo‘ng‘irot tumani (121,7 %) ga to‘g‘ri keldi.


Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning ulushi Nukus shahri (42,1 foiz), Qo‘ng‘irot tumani (14,8 foiz), To‘rtko‘l tumani (7,7 foiz) va Amudaryo (5,2 foiz) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Eng past o‘sish sur‘atlari Nukus tumanida (110,0 %), Mo‘ynoq tumanida (110,8 %) kuzatildi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 5310,8 ming so‘mni tashkil qildi. O‘sish sur‘ati o‘tgan yilga nisbatan 114,2 % ni tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkich hududlar o'rtasida Nukus shahrida 13233,9 ming so'mdan Bo'zatov tumanida 2531,2 ming so'mgacha oraliqni tashkil etadi.

**Hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlarining hajmi va o'sish sur'ati**  
(2022 yil yanvar-dekabr oylari uchun)



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Nukus shahrida 13233,9 ming so'mga teng bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 114,7 % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli o'sishi Qo'ng'irot (120,4 %), Bo'zatov (116,0 %), Amudaryo (115,1 %), Shumanay (114,8 %) tumanlarida kuzatildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi, Bo'zatov (2531,2 ming so'm), Shumanay (2564,8 ming so'm) tumanlarida kuzatildi.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha  
savdo xizmatlari hajmi**




Savdo xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Nukus shahrida (532,5 mlrd. so‘m), To‘rtko‘l (340,6 mlrd. so‘m) va Ellikqal‘a (184,0 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi.

Savdo xizmatlari eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov (15,9 mlrd. so‘m) tumanida qayd etildi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2267,0 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 105,1 % ni tashkil etdi.


## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



2022 yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan savdo xizmatlarida eng yuqori o'sish sur'ati Shumanay (121,6 %), Qonliko'1 (115,8 %) va Taxiato'sh tumanlarida (109,8 %) kuzatildi.

Eng kam o'sish sur'ati Amudaryo tumanida (100,4 %) qayd etildi.

## 2022 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha savdo xizmatlari ulushi, % da




Savdo xizmatlari hajmida eng katta ulushni shahar va tumanlar o‘rtasida Nukus shahri (23,5 %) va To‘rtko‘l (15,0 %) tumanlari egallaydi.

Shahar va tumanlar o‘rtasida eng kam ulush Bo‘zatov (0,7 %), Qonliko‘l (1,6 %) va Mo‘ynoq (1,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 2830,1 mlrd. so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan o‘rish sur‘ati 119,1 % ni tashkil etdi.

**2022 yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha transport xizmatlarining o‘rish sur‘ati va hajmi**



Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Qo‘ng‘irot tumanida (1129,3 mlrd. so‘m) va Nukus shahrida (852,2 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Transport xizmatlari hajmi bo‘yicha eng kichik ko‘rsatkich Bo‘zatov tumanida (11,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.